



O'ZBEKISTONDA IQTISODIY BOSHQARUV MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ISLOHOTLARI VA ULARNING AMALIY NATIJALARI

Mamatqulov Bekzod

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi*

ORCID: 0009-0004-2019-222X

bekzodmamatkulov4444@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlarning mazmun-mohiyati va ularning samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqotda 2010–2024 yillar oralig'ida mamlakatning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari yalpi ichki mahsulot, inflyatsiya, eksport hajmi, xorijiy investitsiyalar oqimi hamda raqamlashtirish jarayonlarining dinamikasi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy islohotlar, iqtisodiy boshqaruv tizimi, raqamli transformatsiya, elektron hukumat, iqtisodiy liberallashtirish, samaradorlik.

РЕФОРМЫ ПО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ МЕХАНИЗМОВ УПРАВЛЕНИЯ ЭКОНОМИКОЙ В УЗБЕКИСТАНЕ И ИХ ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕЗУЛЬТАТЫ

Маматкулов Бекзод

*Академия государственной политики и управления
при Президенте Республики Узбекистан*

Аннотация. В данной статье проанализированы сущность и эффективность экономических реформ, проведённых в Узбекистане в последние годы. В исследовании изучена динамика основных макроэкономических показателей страны – валового внутреннего продукта, инфляции, объёма экспорта, притока иностранных инвестиций и процессов цифровизации в период с 2010 по 2024 годы.

Ключевые слова: экономические реформы, система экономического управления, цифровая трансформация, электронное правительство, экономическая либерализация, эффективность.

REFORMS TO IMPROVE ECONOMIC MANAGEMENT MECHANISMS IN UZBEKISTAN AND THEIR PRACTICAL RESULTS

Mamatkulov Bekzod

*Academy of Public Policy and Management
under the President of the Republic of Uzbekistan*

Abstract. This article analyzes the essence and effectiveness of the economic reforms carried out in Uzbekistan in recent years. The study examines the dynamics of the country's main macroeconomic indicators like gross domestic product, inflation, export volume, inflow of foreign investments, and the processes of digitalization during the period from 2010 to 2024.

Keywords: economic reforms, economic management system, digital transformation, e- government, economic liberalization, efficiency.

Kirish.

O'zbekistonda iqtisodiy boshqaruv tizimini isloh qilish mustaqillik yillaridan boshlab bosqichma-bosqich amalga oshirilib, bozor iqtisodiyotiga o'tish, xususiylashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etishga yo'naltirildi. So'nggi yillarda bu jarayon "Yangi O'zbekiston" strategiyasi doirasida yangi bosqichga ko'tarilib, davlat boshqaruv organlari faoliyatining samaradorligini oshirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va aholiga xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Natijada, mamlakat iqtisodiy barqarorligi mustahkamlanib, sanoat ishlab chiqarishi va eksport salohiyati sezilarli ravishda oshdi.

Mazkur islohotlarning samarasi iqtisodiy erkinlikning kengayishi, aholi farovonligining oshishi va O'zbekistonning xalqaro miqyosdagi nufuzining yuksalishida yaqqol ko'rinmoqda. Ayniqsa, hududiy boshqaruvni takomillashtirish, muammolarga joyida yechim topish hamda ilg'or boshqaruv usullarini tatbiq etish orqali iqtisodiy o'sish sur'atlari tezlashdi. Ushbu o'zgarishlar mamlakatning barqaror rivojlanishiga va jahon iqtisodiyotiga faol integratsiyalashuviga sezilarli hissa qo'shmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilgan islohotlar mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlash, qulay investitsiya muhitini shakllantirish va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini kuchaytirishga qaratildi. Xususan, soliq tizimini soddalashtirish, bank va moliya sohasini bosqichma-bosqich erkinlashtirish hamda valyuta siyosatini liberallashtirish yo'nalishidagi chora-tadbirlar iqtisodiy o'sish jarayonlariga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Natijada, milliy iqtisodiyotning asosiy makroko'rsatkichlarida barqaror o'sish tendensiyasi kuzatildi.

Adabiyotlar sharhi.

Allamurodova (2025) o'zining *The Impact of Digital Transformation on Uzbekistan's Economy: Analysis and Prospects* tadqiqot ishida raqamli transformatsiya jarayonlari (elektron hukumat, fintech, e-savdo) O'zbekistonda iqtisodiy rivojlanishga qanday ta'sir qilayotganligi tahlil qilingan. Maqolada raqamlashtirish orqali mahsuldorlik oshgani, xizmatlar ko'lemi kengaygani qayd etilgan; biroq infratuzilma, raqamli savodxonlik va huquqiy moslashuvdagi muammolar ham aniqlangan. Muallif mamlakatni bilim-asosli iqtisodga aylantirish bo'yicha strategik tavsiyalar keltirgan.

Saidaminovich (2024) o'zining *Economic and Financial Reforms in Uzbekistan* tadqiqot ishida O'zbekistonda kapital bozorini rivojlantirish, davlatga tegishli korxonalarni xususiylashtirish va xorijiy investorlarni himoya qiluvchi huquqiy islohotlar jarayoni ko'rib chiqilgan. Muallif islohotlarning makroiqtisodiy natijalariga (osongina o'zgaruvchanlik, investitsiya oqimi, liberalizatsiya) e'tibor qaratgan. Shuningdek, boshqa rivojlanayotgan bozorlar bilan taqqoslash orqali O'zbekistondagi islohotlarning kuchli va zaif tomonlari aniqlangan.

Kurpayanidi (2020) o'zining *Digital Transformation and Institutional Framework of E-Commerce Development in Uzbekistan* tadqiqot ishida e-commerce (elektron savdo) va raqamli iqtisodiyotning institutiv mexanizmlari, ya'ni qonun-qoidalar, tashkilotlar va siyosatlar O'zbekistonda qanday shakllanayotgani tahlil qilingan. Muallif elektron savdo orqali iqtisodiy boshqaruv mexanizmlarining yangilanishi hamda xalqaro integratsiya imkoniyatlari borligini ta'kidlagan. Biznes-muassasalarning raqamli platformalarga o'tishi bilan bozor mexanizmlari ham o'zgarayotganligi bildirildi.

Viola Fur (2025) o'zining *How Uzbekistan Can Escape the Middle-Income Trap* ushbu tadqiqot ishida O'zbekistonda iqtisodiy taraqqiyot e'tibori bilan "o'rta daromad tuzog'i"dan chiqish imkoniyatlari, ya'ni bozor liberallashtirish, davlat korxonalari reformasi, xususiylashtirish sektorga imtiyozlar bera olish kabi mexanizmlar muhokama qilingan. Muallif O'zbekistonda davlat xarajatlari yuqoriligi, samaradorlik pastligi va raqobat muhitining zaifligi ortida

muammo ekanini ko'rsatgan. Shuningdek, "investitsiyadan – infuziyaga – innovatsiyaga" (investment → infusion → innovation) o'tish yo'li ta'kidlangan.

Ogunmola (2024) o'zining Exploring the Impact of Digital Transformation on Economic Sustainability in Uzbekistan: Opportunities and Implications nomli tadqiqot ishida raqamli transformatsiya va iqtisodiy boshqaruv mexanizmlarining barqarorlikka ta'siri o'rganilgan. Muallif raqamli yechimlar orqali resurslar samaradorligi, xizmatlar ko'lamining kengayishi va tashqi investitsiyalar jalb qilish imkoniyatlari mavjudligini aniqlagan. Biroq raqamli bo'linmalar (digital divide), huquqiy muammolar va institutiv moslashuvdagi sustliklar ham qayd etilgan.

Tadqiqot metodologiya.

Mazkur tadqiqot ishida O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilgan iqtisodiy boshqaruv islohotlarining samaradorligini baholashda tizimli, qiyosiy va kompleks yondashuvlar qo'llanildi. Tadqiqot 2010–2024 yillar oralig'idagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar – yalpi ichki mahsulot, inflyatsiya, eksport hajmi, xorijiy investitsiyalar oqimi hamda raqamli transformatsiya jarayonlari asosida olib borildi. Ma'lumotlar manbai sifatida O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Markaziy bank, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, shuningdek Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasining rasmiy bazalaridan foydalanildi. Olingan ma'lumotlar asosida iqtisodiy islohotlarning o'sish sur'atlariga, moliyaviy barqarorlikka va boshqaruv tizimi samaradorligiga ta'siri aniqlanib, ularning dinamikasi yillik kesimda tahlil qilindi.

Tadqiqotda miqdoriy va sifatli tahlil usullari uyg'unlashtirilib, iqtisodiy boshqaruv mexanizmlarining samaradorligi sabab–natija modeli asosida o'rganildi. Shuningdek, O'zbekiston tajribasi Janubiy Koreya, Polsha va Qozog'iston kabi mamlakatlarning boshqaruv modellari bilan qiyoslab tahlil qilindi. Bu orqali iqtisodiy liberallashtirish, davlat-xususiy sheriklik va raqamli iqtisodiyot sohalaridagi islohotlarning o'ziga xos jihatlari hamda ularning amaliy natijalari aniqlab olindi. Mazkur metodologik yondashuvlar O'zbekiston iqtisodiyotida olib borilayotgan boshqaruv islohotlarining natijaviyligini baholash va istiqboldagi takomillashtirish yo'nalishlarini belgilash imkonini berdi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Islohotlarning amaliy samarasini yaqqol ifodalash maqsadida 2014–2024 yillar oralig'ida O'zbekistonning yalpi ichki mahsulot (YAIM) hajmi, inflyatsiya darajasi hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi dinamikasi tahlil qilinadi. Ushbu ma'lumotlar mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy boshqaruv islohotlarining natijalari va ularning iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga qo'shayotgan hissasini ko'rsatib beradi.

1-jadval

Iqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi jadvali (2014–2024)

Yil	YAIM o'sish sur'ati (%)	Inflyatsiya (%)	To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar (\$)
2014	6.9	9.3	808.6 mln
2015	7.2	8.8	1.04 mlrd
2016	5.9	8.1	1.66 mlrd
2017	4.4	13.9	1.8 mlrd
2018	5.6	17.5	624.6 mln
2019	6.8	14.5	2.32 mlrd
2020	1.6	12.9	1.73 mlrd
2021	8	10.8	2.28 mlrd
2022	6	11.4	2.26 mlrd
2023	6.3	10	2.16 mlrd
2024	6.8	9.6	2.84 mlrd

Manba: Jahon banki ma'lumotlari asosida Muallif tomonidan tayyorlandi.

Ushbu jadvalda O'zbekistonning 2014–2024 yillar oralig'idagi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil qilingan bo'lib, mazkur davr mamlakat iqtisodiyotida chuqur tarkibiy o'zgarishlar boshlangan davr sifatida ajralib turadi. 2016 yildan boshlab Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida iqtisodiy boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish, moliya bozorlarini liberallashtirish, valyuta siyosatini isloh etish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha keng ko'lami islohotlar amalga oshirildi. Natijada, markazlashgan boshqaruvdan bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan ochiq va raqobatbardosh tizimga bosqichma-bosqich o'tish jarayoni boshlandi.

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2024 yilda O'zbekistonning yalpi ichki mahsuloti (YaIM) 6,5 foizga o'sib, mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sish tendensiyasi shakllanganini ko'rsatmoqda. Inflyatsiya darajasi 2017–2018 yillarda eng yuqori cho'qqiga chiqqan bo'lsa-da, keyingi yillarda pul-kredit siyosatini takomillashtirish hisobiga barqarorlashuv kuzatildi. Prognozlariga ko'ra, 2025 yilda inflyatsiya 9 foiz atrofida, 2027 yilga borib esa maqsadli 5 foiz darajasiga yaqinlashishi kutilmoqda. Shu bilan birga, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining izchil o'sishi mamlakatda investitsion muhitni yaxshilash va xalqaro ishonchni mustahkamlash borasida olib borilgan islohotlarning samaradorligini yaqqol tasdiqlaydi.

O'zbekistonda raqamlashtirish jarayoni hamda davlat xizmatlarini modernizatsiya qilish so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. 2017 yildan boshlab "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi asosida davlat boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish, fuqarolar va tadbirkorlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati hamda tezkorligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, "Yagona darcha" tamoyiliga asoslangan elektron hukumat portali, my.gov.uz tizimi va turli mobil ilovalar joriy etilishi davlat xizmatlarini raqamlashtirish jarayonini sezilarli darajada jadallashtirdi. Natijada, aholining davlat idoralari bilan o'zaro aloqasi soddalashib, byurokratik to'siqlar kamaydi, xizmat ko'rsatishning shaffofligi va ochiqligi ta'minlanmoqda. Ushbu o'zgarishlar mamlakatda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga va davlat boshqaruvining samaradorligini oshirishga mustahkam zamin yaratmoqda.

2-jadval

Raqamlashtirish va davlat xizmatlari samaradorligi

Yil	Elektron davlat xizmatlari soni	"Yagona darcha" orqali ko'rilgan arizalar(mln)	Raqamli O'zbekiston indexi(%)	Mobil ilovalar soni
2014	23	0.8	28	2
2015	34	1.2	32	3
2016	45	1.8	38	5
2017	67	2.4	45	8
2018	112	4.1	52	12
2019	178	6.8	61	18
2020	245	12.3	69	24
2021	324	18.7	76	32
2022	398	26.4	82	41
2023	467	35.8	87	48
2024	512	42.6	91	54

Manba: muallif tomonidan tayyorlandi.

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda raqamlashtirish jarayonida so'nggi o'n yillikda sezilarli natijalarga erishilgan. Agar 2014 yilda atigi 23 ta elektron davlat xizmati faoliyat yuritgan bo'lsa, 2024 yilga kelib ularning soni 512 taga yetgan, ya'ni 22 baravar o'sish kuzatilgan. Shu davr mobaynida "Yagona darcha" elektron portali orqali ko'rib chiqilgan

arizalar soni 0,8 milliondan 42,6 milliongacha oshgan bo'lib, bu fuqarolarning raqamli xizmatlardan foydalanish madaniyati va ishonchining ortganidan dalolat beradi.

Bundan tashqari, "Raqamli O'zbekiston" indeksining 28 foizdan 91 foizgacha o'sishi mamlakatning raqamli transformatsiya yo'lida erishgan yutuqlarini yaqqol tasdiqlaydi. Shu bilan birga, mobil ilovalar sonining 2 tadan 54 tagacha ko'payishi davlat xizmatlarida zamonaviy texnologiyalarning keng joriy etilayotganini ko'rsatadi. Ushbu o'zgarishlar nafaqat xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirdi, balki korrupsiya xavflarini kamaytirish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashda ham muhim omil bo'lib xizmat qildi. Natijada, O'zbekiston raqamli iqtisodiyotning rivojlanishida Markaziy Osiyo mintaqasida ilg'or o'rinni egallamoqda.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning samaradorligini tahlil qilishda asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarish dinamikasi muhim ahamiyat kasb etadi. 2017-yildan e'tiboran mamlakatda boshlangan keng ko'lamli iqtisodiy liberallashtirish siyosati milliy iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlariga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bu jarayon natijasida yalpi ichki mahsulot (YaIM) barqaror o'sish sur'atlarini saqlab qoldi, eksport salohiyati kengaydi, xorijiy investitsiyalar oqimi ortdi hamda aholi farovonlik darajasi izchil ravishda oshib bordi.

Quyida keltirilgan jadval 2010-2024-yillar oralig'ida O'zbekistonning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlarni yoritadi. Mazkur tahlil islohotlar natijasida iqtisodiyotda kuzatilgan barqaror o'sish, investitsion faollik va tashqi savdo ko'rsatkichlarining yaxshilanishini aniqlash imkonini beradi hamda mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning real samaradorligini baholash uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

3-jadval

O'zbekiston iqtisodiy ko'rsatkichlarining bosqichma-bosqich o'sishi

Ko'rsatkichlar	2010	2014	2017	2020	2024	Umumiy o'sish
YaIM	39	63.1	81.2	69.2	95	2.3 barobar
Aholi jon boshiga YaIM	1300	2100	2670	2100	2800	2.2 barobar
Eksport hajmi	10.5	13.8	13.6	15.1	19	1.8 barobar
Xorijiy Investitsiyalar	2.1	0.81	1.8	1.73	3.1	5.2 barobar

Manba: Stat.uz ma'lumotlari asosida Muallif tomonidan tayyorlandi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, 2010–2024 yillar mobaynida O'zbekiston iqtisodiyoti izchil va barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etdi. Shu davr ichida yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmi 39 milliard dollardan 90 milliard dollargacha ko'tarilib, 2,3 baravar o'sdi. Bu esa mamlakatning iqtisodiy salohiyati va ishlab chiqarish quvvatining sezilarli darajada kengayganini anglatadi. Shuningdek, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM 1300 dollardan 2800 dollargacha yetib, fuqarolarning daromadlari va turmush darajasi yaxshilanganini tasdiqlaydi.

E'tiborga molik jihatlardan biri shundaki, 2020 yilda pandemiya ta'siri tufayli ayrim iqtisodiy ko'rsatkichlarda vaqtincha pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, 2021–2024 yillarda tezkor tiklanish va yangi o'sish bosqichiga chiqish amalga oshdi. Eksport hajmining 1,8 barobar, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining esa 5,2 barobar oshishi O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarida faol ishtirok etayotganini ko'rsatadi.

Xususan, 2017 yildan keyingi islohotlar davri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish va iqtisodiyotning ochiqligini ta'minlash borasida yuqori samaradorlik bilan ajralib turadi. Bu natijalar mamlakatning bozor iqtisodiyotiga asoslangan yangi rivojlanish bosqichiga o'tganini va iqtisodiy islohotlarning amaliy samarasi yuksak darajada ekanini yaqqol tasdiqlaydi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston mustaqillikdan so'ng bosqichma-bosqich amalga oshirgan iqtisodiy islohotlar so'nggi yillarda yangi bosqichga ko'tarildi. 2017 yildan keyingi davrda olib borilgan keng ko'lamli iqtisodiy liberallashtirish, boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish va raqamli transformatsiyani jadallashtirish choralari mamlakat iqtisodiy salohiyatining sezilarli darajada oshishiga olib keldi.

Xulosa va takliflar.

O'zbekiston iqtisodiyotida so'nggi yillarda olib borilgan islohotlar mamlakatning bozor tamoyillariga asoslangan, raqobatbardosh va barqaror iqtisodiy tizimga o'tish jarayonini jadallashtirdi. Valyuta siyosatining liberallashtirilishi, soliq tizimining soddalashtirilishi, davlat korxonalarining transformatsiyasi va investitsion muhitning yaxshilanishi iqtisodiy boshqaruv mexanizmlarining samaradorligini oshirdi. Natijada yalpi ichki mahsulot hajmi yildan-yilga ortib, eksport salohiyati kengaydi va xorijiy investitsiyalar oqimi sezilarli darajada oshdi.

Shu bilan birga, iqtisodiy boshqaruv tizimida hal etilishi zarur bo'lgan ayrim masalalar ham mavjud. Xususan, ayrim tarmoqlarda institutsional islohotlarning sustligi, kadrlar salohiyatining yetarli darajada bo'lmasligi va boshqaruvda raqamli yechimlarning to'liq joriy qilinmaganligi tizim samaradorligini cheklab turmoqda. Shu bois iqtisodiy islohotlarning izchilligini ta'minlash uchun davlat boshqaruvi jarayonlarini to'liq raqamlashtirish, nazorat mexanizmlarini ochiqlik va shaffoflik tamoyillari asosida takomillashtirish zarur.

Kelgusida iqtisodiy boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish uchun davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, innovatsion boshqaruv texnologiyalarini joriy etish va har bir tarmoqda natijadorlikka yo'naltirilgan indikatorlar tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, hududlar kesimida iqtisodiy faoliyatni muvozanatli rivojlantirish, mahalliy boshqaruv organlarining iqtisodiy mustaqilligini oshirish ham iqtisodiy islohotlarning barqaror natijalarini ta'minlaydi. Shu yo'sinda O'zbekiston iqtisodiy boshqaruv tizimi nafaqat ichki samaradorlikni, balki xalqaro raqobatbardoshlikni ham yangi bosqichga olib chiqadi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:

Allamurodova, Z. (2025). THE IMPACT OF DIGITAL TRANSFORMATION ON UZBEKISTAN'S ECONOMY: ANALYSIS AND PROSPECTS. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(5), 1264–1268. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/ijai/article/view/120608>.

Gabriel Ayodeji Ogunmola (2024) Exploring the Impact of Digital Transformation on Economic Sustainability in Uzbekistan: Opportunities and Implications October. DOI:10.61440/JBES.2024.v1.40.

Jahon banki. (2024). World Development Indicators: Uzbekistan economic overview. Retrieved from <https://data.worldbank.org/country/uzbekistan>

Konstantin Ivanovich Kurpayanidi. (2020) To the problem of doing business in the conditions of the digital economy. https://www.researchgate.net/profile/Konstantin-Kurpayanidi/publication/346083362_TO_THE_PROBLEM_OF_DOING_BUSINESS_IN_THE_CONDITIONS_OF_THE_DIGITAL_ECONOMY/links/5ff2f10745851553a01a0f46/TO-THE-PROBLEM-OF-DOING-BUSINESS-IN-THE-CONDITIONS-OF-THE-DIGITAL-ECONOMY.pdf.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2024). O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari – 2010–2024. Toshkent: Stat.uz

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2017). "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF-4947. Lex.uz orqali olindi: <https://lex.uz/docs/3107036>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2020). "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida PF-6079. Lex.uz orqali olindi: <https://lex.uz/docs/4913699>

Sardor Saidrasulov Saidaminovich, Kamolakhon Saidrasulova Saidaminovna (2024) ECONOMIC AND FINANCIAL REFORMS IN UZBEKISTAN: KEY DEVELOPMENTS AND COMPARISONS. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14191676>.

United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). (2023). *World Investment Report 2023: Investing in Sustainable Energy for All*. Geneva: United Nations.

Viola Fur (2025) *How Uzbekistan Can Escape the Middle-Income Trap*. <https://www.yalejournal.org/publications/how-uzbekistan-can-escape-the-middle-income-trap>. May 17.

Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF). (2023). *Uzbekistan: 2023 Article IV Consultation—Press Release; Staff Report*. Washington, D.C.: IMF.